



NORA GOMRINGER SHE'RIYATIDA BADIY TASVIR VA USLUB MASALALARI¹

Ma'diyeva Adiba Dovudovna

O'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: a-madiyeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligida nazm ilmi va uning ustida tajribalar, ritm va shakllar nazariyasiga oid bilim va qarashlar kundan-kunga yangilanib bormoqda. Bugungi globallashuv jarayonida muayyan zamon va makon adabiyoti va madaniyatini alohida bir ijodkorlar asarlari misolida o'rganish ular ijodida namoyon bo'layotgan obrazlar, janrlar va shakllar borasidagi o'ziga xoslik, individual usul va mohirona ijod, badiiy tasvir kabi she'riyatning ilmiy va nazariy jihatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maqola zamonaviy nemis-shveysariyalik shoira Nora Gomringer, uning g'ayrioddiy ijro san'ati va ovozli she'riyat elementlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos uslubi va eksperimental tabiatining she'riyatda aks etilishiga bag'ishlangan. U o'z ijodida an'anaviy she'riyat elementlarini zamonaviy san'at turlarini mahorat bilan uyg'unlashtiradi. Gomringer tilining nozikligi, o'ziga xos zehn va idrok sehrining ijodida yorqin va serjilo bayoni va kitobxonni so'z bilan faol shug'ullanishga chorlaydigan noyob asarlarining badiiy o'ziga xosligi tahlilga tortilgan. Maqolaning maqsadi Nora Gomringer ijodining yorqin tasvir va ritmni mohirona qo'llashi bilan ajralib turishi, bu uni zamonaviy nemis tilidagi adabiyotning eng ko'zga ko'ringan ohanrabo ifodasi va mohiyatini o'rganishdan iborat.

KALIT SO'ZLAR

She'riyat, ritm, ijro san'ati, iste'dod, mahorat, zamo-naviy ohang, alliteratsiya, an'anaviy obraz.

Received: September 4, 2024

Accepted: October 3, 2024

Available online:

November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

¹ **For citation** (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Ma'diyeva A.D. Nora Gomringer she'riyatida badiiy tasvir va uslub masalalari.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА И СТИЛЯ В ПОЭЗИИ НОРЫ ГОМРИНГЕР

Маъдиева Адиба Довудовна

Преподаватель

Узбекский государственный университет

мировых языков

E-mail: a-madiyeva@mail.ru

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В современном стиховедении как разделе науки о литературе, обращенном к анализу практики использования стихотворной речи, постоянно пополняются знания и возникают новые взгляды на теорию ритма и стихотворных форм. В современных условиях глобализации при изучении литературы и культуры определенного времени и места на примере произведений отдельных ее представителей приобретает большое значение научно-теоретическое рассмотрение особенностей использованных в поэзии этих авторов образов, жанров и форм, своеобразия их стиля и художественного мастерства. Статья посвящена современной немецко-швейцарской поэтессе Норе Гомрингер, изучению ее уникального стиля и экспериментального характера лирики, сочетающей в себе элементы необычного исполнительского искусства и вокальной поэзии. В своем творчестве автор гармонично соединяет элементы традиционной поэзии с современными формами искусства, включая перформанс и визуальные средства. В статье анализируется художественное своеобразие ее изысканной лирики, которое проявляется в изяществе языка. Лирика Гомрингер, сочетающая интеллектуальность и восприимчивость, отличается яркостью и изобилием деталей, что побуждает читателя к активному взаимодействию со словом. Цель статьи - изучить творчество Норы Гомрингер, отличающееся богатой образностью и умелым использованием ритма, что делает его одним из наиболее ярких по мелодичности и содержательности явлений современной немецкоязычной литературы.	Поэзия, ритм, исполнительское искусство, талант, мастерство, современный тон, аллитерация, традиционный образ. Received: September 4, 2024 Accepted: October 3, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

PROBLEMS OF ARTISTIC IMAGE AND STYLE IN THE POETRY OF NORA GOMRINGER

Madieva Adiba Dovudovna

*Independent researcher, teacher,
Uzbekistan State World Languages University
E-mail: a-madiyeva@mail.ru*

ABSTRACT	KEYWORDS
In contemporary literary studies, the science of poetic verse and its related experiments, theoretical knowledge, and views on the principles of rhythm and form are subject to ongoing updates. In the context of today's globalized world, the scientific and theoretical study of literature and culture from a specific historical and geographical perspective, focusing on the works of individual authors, has gained importance. This approach allows for an in-depth examination of the originality of images, genres, and forms in their work, the distinctive methods and techniques employed, and the artistic vision that characterizes their creative output. The article is devoted to the contemporary German-Swiss poet Nora Gomringer, her unique style, which combines elements of unusual performance art and vocal poetry, and the reflection of her experimental nature in her poetry. In his work, he skillfully combines elements of traditional poetry with modern art forms, including performance and visual media. This analysis considers the various elements that contribute to Gomringer's distinctive style, including the subtlety of his language, his unique cognitive processes and perceptual abilities, his ability to provide clear and engaging descriptions, and the artistic uniqueness of his works, which encourage active engagement with language. The scientific-theoretical opinions expressed by German literary experts about the poet's work are presented in the article. The author of the article also expressed a scientific-theoretical attitude regarding the artistic aesthetic value of poetess Nora Gomringer's works in German literature. The purpose of the article is to study Nora Gomringer's work, which is distinguished by its vivid imagery and skillful use of rhythm, which makes it the most prominent melodic expression and essence of modern German literature.	Poetry, rhythm, performance art, talent, skill, contemporary tone, alliteration, traditional image. Received: September 4, 2024 Accepted: October 3, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligi, xususan nazmdagi leksik o'ziga xoslik, makon va zamon masalasi, ijodkorning ma'naviy olami, asar ruhiyati, his-tuyg'ular ifodasi va tasviriga jilo beruvchi vositalar, badiiy va musiqiy san'at, vazn va shakl xilma-xilligi, kompozitsion mahorat masalalarini o'rganishga, ularni tadqiq etishga keng e'tibor qaratilmoqda.

She'riyat turlarining yuzaga kelishi juda qadim zamonlarga taqalib, uning jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi ham o'ziga xos teran tarixga ega. Arastuning "Poetikasi"dan boshlangan deb e'tirof etilgan G'arb adabiyotshunosligi keyinchalik Nikola Bualo "Poeziya san'ati" (1674), Goratsiyning "Poeziya ilmi", Deni Didroning "Dramatik poeziya san'ati", Lessingning "Gamburg dramaturgiyasi", V.Belinskiy "Aleksandr Pushkin asarlari" kabi adabiyotshunoslikka oid manbalar she'riy janr va shakllar taraqqiyoti haqida bir qadar tasavvur beradi.(Umurov H, 2004, 15) Janrlar va shakllar haqidagi nazariy asoslarning ma'lum va mashhur shoir-u yozuvchilar asarlari tahlili misolida tahlil etilishi ularning individual uslubi, nazmiy va nasriy mahorati, adabiy-estetik qarashlari, g'oyaviy qarashlarini aniqlash bugungi kun zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil va tadqiq etish muhim va dolzarblikligini belgilaydi. Buning uchun tavsifiy poetikaga yondashgan holda uning badiiy mahoratini yanada izchil ravishda o'rganish muhim. Zero, "poetik yoki badiiy mahorat yozuvchining o'ziga xos badiiy olami, badiiy asarni yaratishdagi san'atkorligidir. Ijodkorning badiiy mahorati asar tilining mohirona berilishida, obraz yaratishida, badiiy tasvir vositalaridan o'z o'rnida, mohirona foydalanishida, asar kompozitsiyasini to'g'ri va tizimli shakllantirishda va h.k.larda yaqqol namoyon bo'ladi." (Xalliyeva G., 2020, 48)

Hozirgi zamon she'riy janr va shakllari haqidagi o'zbek shoiri va adabiyotshunos olim Jamol Kamolning ta'rifiga ko'ra, lirikaga xos janrlarni bir-biridan ajratib turadigan birgina omil, ya'ni lirik kechinmaning xos xususiyatiga bog'liq. "Biroq hozirgi davrda lirik she'riyatda tajassum topgan va topayotgan kechinmalar dunyosi shu qadar boy va rang-barangki, ularni qat'iy tasnifga solish, aniq xil va turlarga ajratib ko'rsatish juda mushkul." (Kamol J., 2018, 143)

Darhaqiqat, hozirgi zamon she'riyatini aynan an'anaviy tarzda emas, qolipga solinmagan yangicha elementlar va g'ayrioddiy shakllar bilan boyitilganining guvohi bo'lamiz.

Ushbu tadqiqot ishi g'arb zamonaviy she'riyatining yorqin namoyandasi Nora Gomringer va uning nazmiy ijodidagi yangicha yondashuvlari, she'rlarida ruhiyat, hissiyot va intellektual-falsafiy olamini ifodalay olishi hamda uni ohangrabo ifoda bilan o'qish usullarining tahlili ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

ASOSIY QISM

Nora Gomringer - nemis adabiy hayotida ko'p yillar davomida muhim o'rin egallagan zamonaviy nemis shoirasi va yozuvchisi. U 1980-yil 30-yanvarda Bavariyaning Noyunkirxen shahrida shveysariyalik shoir va tarjimon Eugen Gomringer va nemisshunos olimi Nortrud Gomringer oilasida tavallud topdi.

Gomringer o'zining adabiy faoliyatini 2000-yillarning boshida boshlagan va shundan beri uning ijodi ham tanqidchilar, ham keng jamoatchilik e'tiborini tortdi, u o'zining g'ayrioddiy ijro san'ati va ovozli she'riyat elementlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos uslubi bilan tanildi. U turli janrlarda, jumladan, nazm va nasrda ijod qiladi, lekin uning she'rlari tez fursatda shuhrat qozondi va hanuz shoir-u she'rxonlar tomonidan olqishlanib kelinmoqda.

Nora Gomringer ijodining asosiy xususiyatlaridan biri uning betakror ovozi bo'lib, u an'anaviy she'riy shakl va uslublarga yangicha yondashuvlar bilan, ya'ni mumtoz she'riyat aspektlarini zamonaviy madaniyat bilan uyg'unlashtirgan. Uning poeziyasi o'ziga xosligi bilan, aniqroq aytganda vizualligi bilan ajralib turadi.

Gomringer she'rlari o'zining ovozi va ritmi bilan ham mashhur. U ijodi davomida turli shakl va uslub bilan tajriba qilishdan, ularni turlicha qo'llashni va uyg'unlashtirgan holda jozibador ohang yaratishga intiladi. Gomringer she'rxonliklarda o'zining serjilo she'riy namoyishlari bilan faol ishtirok etadi, uning so'z va harflar ohangiga allaqanday mazmun va his-tuyg'ularni-da bag'ishlaganini she'riyatining yozma va vokal ovozli matni bir-biri bilan chambarchas ifoda

etilishidan anglash mumkin. Zero, nemis tilshunosi va madaniyatshunosi Lyudvig Yegerning ta'kidlashicha, "akustik matn"ning "badiiy matn" bilan aloqasi (bosma yozma matnni anglatadi) faqat modallikning vizual-mualliflikdan eshitish-vokal belgilariga o'zgarishi sifatida talqin qilinishi kerak, matnlar, lekin bir transkripsiya munosabati sifatida ikkala media elementi faqat ularning "o'zaro ta'siri" jarayonida hosil bo'ladi". (Jäger L., 2014, S. 231-253)

Asarlari bir necha tillarga tarjima qilingani va turli ijobiy fikrlar bildirilayotgani shoira iste'dodining xalqlararo e'tirofidan dalolat beradi. Nora Gomringer, shuningdek, ko'plab nufuzli adabiy mukofotlar, jumladan, Inge Borgman nomidagi she'riyat mukofoti va Germaniyaning eng nufuzli adabiy mukofotlaridan biri bo'lgan Georg Byuxner mukofoti sohibasidir. Nora ayni paytda adabiy faoliyati bilan bir qatorda Germaniyaning Bamberg shahar Xalqaro san'at uyini boshqarish bilan birga faoliyati davomida dunyo adabiyotini millatlararo va madaniyatlararo ommalashtirishda faol ishtirok etadi, jumladan har yili o'tkaziladigan Evropa xalqaro adabiy festivallarda o'zining hozirgi zamon dunyo adabiyoti, xususan she'riyati to'g'risida mahorat darslarini taqdim etadi.

Adabiyotshunos va shoirlarning Nora Gomringer haqidagi fikrlaricha, u zamonaviy nemis adabiyotida yangicha qirralari bilan taassurot uyg'otadi, adabiy muhit vakillari uning shakl va mazmun bilan tajriba o'tkazishdagi jasoratini, shuningdek, an'anaviy she'riy mavzularga yangicha nuqtayi nazar yaratayotganini bot-bot qayd etadilar. Ba'zi yozuvchilar uning turli janrlar va ommaviy axborot vositalarini uyg'unlashtirib, odatiy she'riyatdan tashqariga chiqadigan asarlar yaratish qobiliyatiga qoyil qoladilar.² (online manba) Jumladan, uning ijro san'ati va ovozli vizual she'riyatni adabiy kontekstga integratsiyasi kabi yangicha yondashuvi shoir-u olimlarni hayratda qoldiradi. U boshqa shoir-u yozuvchilarni ham til me'yorlaridan erkinroq va cheksiz ijodiy imkoniyatlarini yaratish uchun ilhomlantiradigan shoir sifatida tilga olinadi. Yana shuni aytish mumkinki, adabiyotshunos tanqidchi Mixael Braun, Kristian Metz, nemisshunos olim Tomas Gayger va nemis shoiri Yan Vagner

² <https://www.voland-quist.de> Beat Mazenauer, viceversaliteratur.ch

uning zukkoligi va aqliy teranligini yuksak baholaydilar.³ (“Deutsche Gegenwartslyrik”, 2010). Jumladan, Nora Gomringer ijodi haqida fikr bildirgan olimlardan biri nemis adabiyotshunosi va tanqidchisi Xarald Xartung muayyan tahlil uchun uning “Monster she’rlari” asarini tanladi. Uning ta’kidlashicha, Gomringer bu turkum she’rlarida inson ongida yashiringan qo’rquv va fobiyalarni hazil va kinoya prizmasidan o’rganishga muvaffaq bo’ladi. Uning so’zlariga ko’ra, shoira bezovta qiluvchi va qorong’u mavzularni o’ynoqi, qiziqarli va jozibali yarata olish hamda an’anaviy- zamonaviy unsurlarni mohirlik bilan uyg’unlashtira olish hodisasi sifatida baholar ekan, uning til, shakl va ohangga yangicha yondashuvini alohida izohlaydi. (Hartung H., 2005, 165)

Nora Gomringer o’z intervyusida bunday sharhlarga o’z fikrini bayon qilarkan, uning she’rlari turli xil his-tuyg’ular va talqinlarni uyg’otishi u uchun muhimligini ta’kidladi. Uning ta’kidlashicha, har bir o’quvchi uning asarlarida o’ziga xos narsani topa oladi va bu xilma-xillik she’riyatni jonli va dolzarblikligini namoyish etadi. Bundan tashqari u o’z she’riyatini serqirra va ilm-fanga xos, deb belgilaydi, bunda til dunyo va inson tajribasini o’rganishning asosiy vositasi hisoblanadi. U tez-tez she’riyati haqida bir tekis matndan tashqariga chiqadigan va ijro, ovoz hamda tasviriy san’at elementlarini o’z ichiga olgan ifoda shakli ekanligi haqida doimiy ravishda batafsil ma’lumot beradi. Darhaqiqat, Gomringer tili she’riyatining muhim tizimidir. U ko’pincha kundalik ibora va so’zlardan foydalanadi, lekin so’z o’yini, alliteratsiya va ritmik hodisasi orqali chuqur ta’sir kuchiga erishadi. Uning she’rlarida matnning musiqiy ohangdorligini kuchaytiruvchi tovush elementlariga duch kelishingiz mumkin. Bu, ayniqsa, uning ijrolarida ohang va ifoda she’rlar idrokiga qo’shimcha tarovat bag’ishlaydi. U an’anaviy shakllardan foydalanishi mumkin, lekin ularni an’anaviy ritmlar va qofiya sxemalarini buzgan holda yangi yo’llar bilan izohlaydi. Va yana ta’kidlash mumkinki, vizual she’riyat elementlarini uning ijodida ham topish mumkin, matn shakli she’riyatining mazmun va mohiyatini ochib beradigan muhim qismiga aylanadi.

³ <https://www.voland-quist.de> Janina Fleischer, Hannoversche Allgemeine Zeitung

Nora Gomringer she'rlari tahlilini shundan boshlash mumkinki, uning she'riyati ko'p qatlamli va eksperimental xarakterga ega bo'lib, unda til, shakl va mazmun turli darajalarda o'zaro uyg'unlashib, kitobxonga o'z ta'sirini ko'rsatadi. U ko'pincha shaxsiyat, qo'rquv, madaniyat, san'at va jamiyat kabi mavzularni o'rganadi. U she'rlaridagi o'lim, yolg'izlik, tashvish kabi murakkab va qorong'u mavzulardan chetga chiqmaydi, balki istehzo va o'yin elementlarini ham taqdim etadi. Bu engillik va chuqurlikning g'ayrioddiy uyg'unligini yaratadi, bu uning she'riyati ham qulay, ham falsafiy bo'lishiga imkon beradi. Misol uchun adabiyotshunoslarni hayratda qoldirgan "Monster she'rlari"ni tahlilga tortsak. Ushbu psixologik she'rning debochasida shoira yirtqich jonzotni majoziy obraz ekanligini ochiqlamaydi.

Das Monster kommt nachts

Schleicht leise auf Zehenspitzen.

Ya'ni:

Yirtqich jonzot kelar kechasi

Yashirinar oyog'ingiz ostida

Demak, kundalik hayot, ijod va ish mashaqqatlaridan horigan shoira sokin tunda qalbi orom olmay, g'alayon o'y-xayollar uni ta'qib qila boshlaydi, ya'ni ichki qo'rquv va tashvishlar yirtqich hayvon timsolida oyoq ostida yashiringani misolida bayon eta boshlaydi. She'rdagi yirtqich hayvon insonni ta'qib etuvchi, uning qo'rquv, shubha va ishonchsizliklarini o'zida mujassam etgan ichki jinlarning metaforasiga aylanadi. Gomringer ichki ziddiyat g'oyasini o'rganadi, ko'rinmas, eshitilmas va hatto sezib bo'lmas qo'rquv va hadik ong-u qalbni dahshatli tarzda egallab, doimiy hamrohga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi:

Du siehst ihn nicht, du hörst ihn nicht,

Aber weißt du, er ist nah dran

Ya'ni:

Siz uni ko'rmaysiz, eshitmaysiz ham

Sezmaysiz ham,lek u yaqiningizda.

She'r tili sodda, ammo taranglikka to'la, tashvish va kutish tuyg'usini

yaratadigan qisqa, tiniq jumladan foydalanadi. She'r so'z boyligining soddaligiga qaramay, so'zning ritmi va ixchamligi tufayli kuchli emotsional javob uyg'otadi.

“Yirtqich” so'zini takrorlash bu tuyg'uni kuchaytiradi, tasvirni yanada haqiqiy va tahdidli qiladi. She'r qarama-qarshilik ustiga qurilgan: yirtqich hayvon va odam, qo'rquv va haqiqat, ichki va tashqi ziddiyatlar. Ushbu tuzilma yirtqich hayvon insonning o'zidan, uning qorong'u tomonidan ajralmas narsa ekanligi haqidagi fikrni ta'kidlaydi:

Das Monster lebt in dir

Er ist dein Bild, in deinem Geist.

Ya'ni:

Yirtqich jonzot taningizda joy olar

Sizning aksingiz u, ruhingiz egar

She'rning yirtqich hayvon bilan odam bir xil jonzot bo'lib chiqishi bilan yakunlanishi muqarrarlik va qochishning mumkin emasligi hissini kuchaytiradi.

Ushbu she'rdagi yirtqich hayvon inson bostirishga yoki yashirishga harakat qiladigan barcha qo'rquv va shubhalarni ifodalovchi asosiy belgidir. U har birimizda mavjud bo'lgan, lekin biz ko'pincha e'tiborsiz qoldiradigan tashvishning timsoliga aylanadi:

Er ernährt sich von deinen Zweifeln

Wächst mit deinen Sorgen.

Ya'ni:

Fikru-zikringiz bilan oziqlanar u

Ta'm-mazasi tashvishlar ila ortar.

Bu obraz metafora darajasida ishlaydi, insonning ichki dunyosini, uning psixologik ziddiyatlarini ochib beradi.

Bu she'rini qo'rquv va ichki ziddiyatning tabiati haqida fikr yuritish sifatida talqin qilish mumkin. Nora Gomringer shuni ko'rsatadiki, bizning asosiy dushmanimiz o'zimiz, aniqrog'i, tan olish yoki qabul qilishdan qo'rqadigan

shaxsiyatimizdir:

Du kannst nicht weglaufen
Kann mich nicht verstecken.

Qochib ketolmaysiz siz undan
Yashira olmaysiz o'zingizdan ham

Yirtqich hayvon bizni qo'rqitadigan, ammo ichki tinchlikni topish uchun kelisha olishimiz kerak bo'lgan jihatlarimizning ramziga aylanadi.

“Monster” she’ri Nora Gomringer she’riyatining insonning ichki dunyosiga daxldor, ta’sirchan obrazlar yaratishdagi qudratini namoyon etadi. Gomringer sodda, ammo ta’sirchan tildan foydalanib, she’rning asosiy mazmunini mustahkamlaydigan tashvish va taranglik muhitini yaratadi: qo’rquv va xavotir tashqi kuchlar emas, balki o‘z mohiyatimizning bir qismidir:

Das Monster bist du
Und du bist er.

O'sha yirtqich o'zingiz asli
Ha, u asli -siz.

Nemis yozuvchisi Gert Rayfart uning ijodi haqda “Bu ko‘rinib turibdi: tarix va jamiyat haqidagi qarashni faqat subyektiv nuqtayi nazardan ishonchli tarzda ifodalash mumkin ekan; ular odatda kichik. Lekin uning tufayli ulkanroq tasvirga ishora qiluvchi taassurotlar mujassam.”, deya tan beradi. (Buchwald Ch., 2015, 199)

“Monster she’rlari” turkumidan “Monster-Mädchen” - “Monster qiz” she’riga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda his-tuyg‘u va tuyg‘ularni ifodalash uchun sodda so‘zlardan, ammo majoziy jihatdan boy tasvirlardan foydalanadi. She’rining adabiy talqinining bir nechta asosiy jihatlariga e’tibor qaratsak, “yirtqich hayvon” metaforasi orqali ijtimoiy me’yorlarning tanqidi va shaxsning botiniy kurashlarini yoritadi. She’rda asosiy qahramon yirtqich hayvon obrazi bo‘lib, u ayol o‘ziga xosligining jamiyat e’tiboridan, hurmatidan chetda qolganligini ramziy timsol orqali ko‘rsatadi. Yirtqich hayvon iborasidan umuman olganda ayollardagi go‘zallik, xushxulqlilik,

nazokat, nafasat kabi sifatlar xos bo'lmagan jonzotlarni tushuniladi. Shoir a ushbu obrazdan jamiyatda belgilangan qoidalarga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlarni qoralab, ularni "yirtqich hayvonlar"ga aylantiradi, degan fikrni ifodalash uchun qo'llaydi.

She'r aynan ayol obrazida o'z-o'zini anglash, ijtimoiy idrok va ichki kurash g'oyalariga yo'g'rilgan she'r hisoblanadi. Bu asarida shoir a "yirtqich hayvon" obrazini tadqiq qilib, ayol xilqatining nozik, lekin murakkab va ba'zan og'riqli dardlarini tasvir laydi. Unda jamiyat ko'pincha ayollarga o'z istagini qondirish uchun turli talablar qo'yadi va bu talablarga dosh bera olmay, o'zlarini "yirtqich jonzotlar" kabi his qilishlarini ifodalaydigan tushunchaga e'tibor qaratadi. Quyida davr va uning og'ir sinoviga javoban quyidagi she'rda lo'nda va qisqa ifoda etadi:

Das Mä dchen bin ich, dass du sortierst

Du sortierst mich, es blieb mir nichts

O'sha qiz-men, o'sha- sen parchalagan.

Parcha etding meni, jismimda qolmadi jon...

Uning uslubi ko'pincha vazminligi bilan ajralib turadi, bu o'quvchiga matnni hissiy mazmun bilan to'ldirishga imkon beradi. U asosiy fikrlarni ta'kidlash va she'rga musiqiy sifat berish uchun takrorlash yoki ritm elementlaridan foydalangan deb tasavvur qilish mumkin.

Bu kuchli va hissiy jihatdan boy she'rni jamiyatda xotin-qizlar haqidagi tasavvurlarni qanday shakllantirishi va "dahshatli" ko'rinsa ham, o'ziga xos xususiyatlarimizni qabul qilish muhimligi haqida o'ylashga undaydi. Gomringer ushbu tasvir orqali ayollarni o'z individualligida kuch topishga va o'rnatilgan talablardan farq qilishdan qo'rqmaslikka undaydi. She'rda o'zini izlash va o'zlikni anglash tuyg'ulari ustunlik qiladi. Gomringer hissiy chuqurlik va his-tuyg'ularning murakkabligini ifodalashga yordam beradigan metafora va belgilarning boy arsenalidan foydalanadi:

Übrig bin ich Wer ich jetzt bin

Ich jetzt bin Wer? Fragst du mich

Burda bo'ldim, endi Kim bo'ldim
Men endi Kim? so'raysan mendan

Ya'ni, vaqt va undagi achchiq zarbalar chiroyli chehrada chizgilar, ya'ni ajinlarni yuzaga chiqarib, kim ekanligi qiyofasida yashiringanligini tasvirladi. Bunda shoiraning ichki taranglik va hissiy notinchlikni ta'kidlaydigan qirrali ritm yoki kuchli hayajonini qisqa so'zlaridan tushunib olish mushkul.

Ehtimol, u tabiat bilan bog'liq ramzlardan (masalan, daraxt, ildizlar, yer) doimiylik, barqarorlik va chuqur aloqalar g'oyasini ta'kidlash uchun foydalangan bo'lar edi. O'zgarishlarning muqarrarligini va yillar o'tishini ko'rsatadigan vaqt va xotira ramzlariga ham qo'l urishi mumkin edi. Gomringer ko'pincha o'quvchini o'z umidlari va o'z stereotiplarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilish uchun istehzoli intonatsiyalar va rasmlarning kutilmagan kombinatsiyalaridan foydalanadi.

She'r, shuningdek, ayollar boshdan kechirayotgan ijtimoiy talablar va bosimlarning tanqidi sifatida xizmat qiladi. Gomringer ijtimoiy standartlar ayollarga qanday qilib ma'lum vazifalar yuklashini ko'rsatadi, ichki ziddiyat va norozilik hissiyotlarini keltirib chiqaradi. Bunday talablar ayollarni "yirtqich hayvonlar" kabi shakllantiradi. Shoira "Monster-Mädchen" obrazi orqali jamiyatning ayollarni haydashga urinayotganini tanqid qiladi va muammoga boshqa tomondan qarashni taklif qiladi. Muayyan bir davr zarbalariga sabr-bardosh qilgan shoira „Monster-qiz“ni chuqur ma'no va hissiyotlarni o'z ichiga olgani bilan mardonavor, yengilmas kuchi borligiga ishora qilgan holda yakunlaydi:

so spricht das Monster
das Monster bin ich

Maxluq shunday deydi:
Men Maxluq bo'ldim

... Gomringer ayolning o'ziga xos jihatlari, jamiyat tomonidan ayollarga beriladigan ta'rif-u talqinlar, ayollarga nisbatan salbiy munosabatlar, turli bema'ni

siyosiy hukm jabrdiydasi yoki noto'g'ri tushunchalar sababchisi haqidagi ayblovlarni o'rganadi. Bu she'rda jamiyat tazyiqlari natijasida vujudga keladigan ichki qarama-qarshiliklar aks ettirilgan, uning satrlari bilan esa ayol zotiga asl ta'rifni beradi.

Shuningdek, ayol o'zining haqiqiy istaklari va his-tuyg'ularini jamiyat undan kutayotgan narsalar bilan uyg'unlashtirishga urinayotganda duch keladigan tashqi bosimlarga bardosh berish, o'z-o'zini qadrlash va o'z istagini idrok etishiga ta'sir qilishini ko'rsatib, bu ziddiyatni mohirona ko'rsatadi, ya'ni o'z-o'zini anglash va o'z shaxsiyatining barcha qirralarini, hatto "dahshatli" tuyulishi mumkin bo'lgan xislatlarini ham to'g'ri tushunishga undaydi.

Gomringer she'riyatidagi ayollar obrazi ham kuch va zaiflik elementlarini o'z ichiga oladi. Uning she'rlarida ayollarni kuchli va qat'iyatli, ammo zaif, qiyinchiliklar va ichki kurashlarga duchor bo'lgan holda tasvirlash mumkin. Gomringer bu jihatlar bir-biriga zid emasligini, aksincha, ayollar tajribasining yaxlit tasvirini tashkil etishini ko'rsatadi.

Nora Gomringer adabiyot, musiqa, kino va boshqa san'at turlariga havolalarni o'z ichiga olgan intertekstuallikdan tez-tez foydalanadi. Bu uning she'riyatini madaniy ma'nolarga boy qiladi va keng omma bilan muloqot qilish imkonini beradi. Uning she'rlarini o'ziga xos madaniy sharh sifatida qabul qilish mumkin, unda u ommabop va yuksak madaniyat unsurlarini tahlil qiladi va qayta talqin qiladi. She'rlari badiiy jihatdan zamonaviy nemis she'riyatida o'ziga xos hodisadir. Ular intellektual chuqurlikni hazil tuyg'usi bilan, soddalikni tajriba bilan uyg'unlashtirib, uning ishini keng auditoriya uchun ochiq, shu bilan birga ko'p qatlamli va talqinga boy qiladi. Uning ijodi rivojlanib, she'riyat ixlosmandlarining ham, adabiyot mutaxassislarining ham e'tiborini tortmoqda.

Xulosa o'rnida, Gert Rayfartning fikrini keltirishni joiz topdik: "... biz bir tomondan polifoniya, istiqbollari, noaniq yoki turli ma'ruzachilar pozitsiyalari va ijtimoiy ahamiyatga ega mavzular bilan shug'ullanamiz. Tinglovchida esa, ko'pincha shoirlar va ularning audio she'rlariga tegishli bo'lgan haqiqiylikka katta ehtiyoj bor. Aynan polifoniya va muallif ovozi o'rtasidagi hayajonli munosabatlar audio she'riyat muvaffaqiyatiga muhim hissa qo'shishi aniq." (Buchwald Ch., 2015, 199)

Shoira o'zining eksperimental yondashuvi bilan jahon adabiyotshunoslari orasida mashhur bo'lib, ijrochilik, tasviriy san'at va vositachilik elementlarini o'z ijodida mahorat bilan qo'llagan shoira sifatida e'tirof etiladi. Uning she'riyati ko'pincha o'zlik, idrok, til va madaniyat masalalarini o'rganadi va yangi shakl va tuzilmalar bilan ajralib turadi. Gomringer she'riyatni nafaqat ma'no-mazmunni ifodalash vositasi, balki turli shakllar va usullar bilan yaratish usuli sifatida ham ko'radi. Uning uchun she'rlar nafaqat o'qilishi, balki qandaydir voqelik, his-tuyg'u va orzu-istaklarni ifoda etishi ham muhimdir. U o'z she'riyatida hissiy munosabat uyg'otishga, fikrni uyg'otishga va o'quvchi bilan ko'p darajalarda shug'ullanishga intiladi. Shuningdek, u she'riyati kundalik hayot, madaniyat, tarix va shaxsiy tajribalardan ilhom olishini ta'kidlaydi.(Gomringer N., 2021, 28) Uning so'zlariga ko'ra, u ham jiddiy, ham o'ynoqi, sodda va murakkab, tushunarli va sirli she'r yaratishga intiladi. Gomringer o'z she'riyatini dunyodagi va o'zidagi o'zgarishlarga javoban doimo rivojlanib boruvchi dinamik jarayon, deb biladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. B-15.
2. Xalliyeva G. I. Qiyosiy adabiyotshunoslik. Mumtoz so'z nashriyoti, 2020. B-48
3. Kamol J. Saylanma. Olti tomlik. IV tom. She'r san'ati. Toshkent., Yangi asr avlodi., 2018. – B.143.
4. Jäger L. Audioliteralität. Eine Skizze zur Transkriptivität des Hörbuchs., in: Binczek, Natalie/Epping-Jäger, Cornelia (Hg.), Das Hörbuch. Praktiken audioliteralen Schreibens und Verstehens, München 2014, S. 231-253, hier: S. 231f
5. Hartung H. Aktennotiz meines Engels. Gedichte 1957-2004. Wallstein Verlag, Göttingen, 2005. S- 165
6. Buchwald Ch. N.Gomringer.(Hg.), Jahrbuch der Lyrik 2015, München 2015. S-199
7. Gomringer N. "Eine Würdigung" Carl-Zuckmazer-Medaille des Landes

Rheinland-Pfalz 2021. Staatstheater Mainz., 2021. S-28

8. Gomringer N. *Monster Poems*. Mit Illustration von Reimer Limmer. Verlag Volland/Quist OHG., 2013. S-8

9. <https://www.volland-quist.de> Beat Mazenauer, viceversaliteratur.ch

10. <https://www.volland-quist.de> Janina Fleischer, *Hannoversche Allgemeine Zeitung*

REFERENCES

1. Umurov. H. (2004) *Theory of literary studies*. Publishing House of Folk Heritage named after A. Qadiri. P.15.

2. Khalliyeva G. I. (2020) *Comparative literary studies*. Mumtoz Soz publishing house. P.48

3. Kamal J. (2018) *Don't be elected. Six roofs. IV roof. The art of poetry*. Tashkent., New century generation. P.143.

4. Jäger. L. (2014) *Audio literacy. A sketch of the transcriptivity of the audio book.*, in: Binczek, Natalie/Epping-Jäger, Cornelia (ed.), *The audio book. Practices of audio-literary writing and understanding*, Munich 2014, pp. 231-253, here: p. 231f

5. Hartung H. *Memo of my angel. Poems 1957-2004*. Wallstein Verlag, Göttingen, 2005. p. 165

6. Buchwald Ch. (2021) N. Gomringer.(ed.), *Yearbook of Poetry 2015*, Munich 2015. p. 199

7. Gomringer N. (2021) "An appreciation" *Carl Zuckmazer Medal of the State of Rhineland-Palatinate Staatstheater, Mainz*. p.28

8. Gomringer. N. (2013) *Monster Poems*. With illustration by Reimer Limmer. Publisher Volland/Quist OHG.,. S-8

9. <https://www.volland-quist.de> Beat Mazenauer, viceversaliteratur.ch

10. <https://www.volland-quist.de> Janina Fleischer, *Hannoversche Allgemeine Zeitung*